FARG‘ONA VILOYATI UCHKO‘PRIK TUMANI HOKIMINING QARORI

2022 - yil 29 - sentabr 223-11-162-Q/22 Uchko‘prik tuman hokimligi

Yo‘l belgilari o‘rnatish to‘g‘risida

Uchko‘prik tumani hududida umumfoydalanuvidagi avtomobil yo‘llari va markaziy ko‘chalarida fuqarolar va transport vositalarini harakati xavfsizligini ta’minlash, yo‘l transporti hodisalarini oldini olish maqsadida “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6, 25-moddalari, “Yo‘l harakati xavfsizligi to‘g‘risida”gi Qonunining 7-moddasi, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 12-apreldagi 172-son qarori bilan tasdiqlangan “Yo‘l harakati Qoidalari”ga asosan

Q A R O R Q I L A M A N:

1. Tuman IIBning 2022-yil 1-iyuldagi 722-sonli xati ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Uchko‘prik tumani, Uchko‘prik MFY, Sog‘lom avlod ko‘chasining tuman shifoxonasi yo‘li 0-0,4 km qismi oralig‘iga 3.27. «To‘xtash taqiqlangan» yo‘l belgilarini o‘rnatishga ruxsat berilsin.

3. Tuman Ichki ishlar bo‘limi boshlig‘i A.Sotvolidev va tuman yo'llardan foydalanish unitar korxonasi direktori R.Ergashevga yo‘l belgilarini o‘rnatish va doimiy nazorat qilish vazifasi yuklatilsin.

4. Mazkur qaror rasmiy e’lon qilinsin va hokimlikning rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin, qaror rasman e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

5. Ushbu qarorning bajarilishini nazorat qilish tuman hokimi o‘rinbosari X.Ummatov zimmasiga yuklatilsin.

Tuman hokimi **A.Asqarov**